



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJTIMOIIY-HISSIY RIVOJLANTIRUVCHI O'YINLARNI TASHKIL QILISH

Abdullayeva Feruza Shavkatovna

Chirchiq davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi.

Umarova Madina Shuxrat qizi

Chirchiq davlat Pedagogika Universiteti 1- kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7843112>

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ijtimoiy-hissiy jihatdan shakllantiruvchi o'yinlarni tashkil etish va bu o'yinlar bolani hayotidagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlandi.

Kalit so'zlar. O'yin, bola, tarbiya, ijtimoiy, hissiy, sujetli, rol, hamkorlik.

Kirish. Qadim zamonlarda bolaga nisbatan "o'yin" so'zi "yashash", "do'st bo'lish" degan ma'noni anglatgan. Zamonaviy bola odatda "Men siz bilan o'ynashni hohlayman" yoki "men siz bilan o'ynashni hohlamayman" degan so'zlarni ko'p ishlatadi. Bunda bolalar o'z his-tuyg'ularini ifodalaydi. O'yin muhim ahamiyatga ega ijtimoiy hayotning aksidir. O'yin bolaning umumiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. O'yinda bolalar hamkorlikda, yani bir-birini tushunib ish tutadi. Bolaning asosiy kundalik harakatlari o'yin bilan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin yosh faoliyatiga hissiy jihatdan to'yintirishni, bolada ma'lum bir kayfiyat va ilhom talab qiladi. O'yin bir tomondan bolalarda allaqachon o'rnatilgan usullarni ochib beradi va hissiy odatlarini shakllantiradi. Bolaning xulq-atvorini, uning hissiy holatini rivojlantiradi va boyitadi.

Bolalar bilan hamkorlikda ishlash bolaning shaxsiy fazilatlar va hissiy tajribalarini



ochib beradi. Xuddi shu vaqtda o‘yinga yangi hissiy tajribani kiritishga (quvonchni boshdan kechirish, tengdoshlari bilan muloqot qilish va boshqalar) hissa qo‘shadi. Bolalarda salbiy hissiy ko‘rinishlarni neytrallab ularda yangi ijobiy fazilatlar va intilishlarni shakllantirishga yangi motivlar va ehtiyojlarni hosil qiladi. Tarbiyachi bolalarni shakllantirish uchun turli o‘yin texnikasidan foydalanadi. Xushmuomalalik, sezgirlik, mehribonlik, o‘zaro yordam bolalarni jamiyatda yashash uchun kerak bo‘lgan hamma narsani shakllantiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida har bir guruh xona bolalarning yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda o‘yin maydonchalariga bo‘linadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o‘yin hisoblanadi. Bola o‘yinda ko‘p vaqt sarflaydi. A.S.Makarenko bolalar o‘yinlarning shunday tavsiflagan:” O‘yin bola hayotida muhim ahamiyatga ega u kattalar faoliyati, mehnati, xizmati bo‘lganidek manoga ega. Bola qanday o‘yin o‘ynaydi, shuning uchun u katta bo‘lganida ko‘p jihatidan ishda bo‘ladi. Shuning uchun kelajakdagi shaxsni tarbiyalash birinchi navbatda o‘yinda sodir bo‘ladi...”

“Men bilan o‘ynang “ – farzandlarimizdan bu iltimosni qanchalik ko‘p eshitamiz. Lekin ota-onalar bu iltimosga “ Vaqtim yo‘q”, “ keyinroq o‘ynaymiz” kabi javob berishadi. Ammo bola uchun o‘yin haqiqiy dunyo unda u “keyinroq” emas balki “ hozir” yashaydi. Bola bilan o‘ynash uchun siz o‘zingiz hamma narsaga juda qiziqadigan va har daqiqada zavqlanadigan bola sifatida qilishingiz kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ” Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida bolalarni rivojlantirish uchun 5 ta soha ishlab chiqarilgan. Xuddi shu rivojlantiruvchi sohalardan ikkinchisi “ Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” hisoblanadi. Bu sohada kattalar va tengdoshlari bilan muloqotchilikni shakllantirishga katta e’tibor qaratilgan.



Tarbiyachi asosan bolalar eshitishi va ular bilan birgalikda ish tutishi kerak. Bolalarga ijtimoiy hayotni tushuntirish kerak bo'ladi. Do'stlariga bo'lgan mehr-e'tibor hammasi shundan rivojlanadi.

O'yin doimiy o'zgarib turganligi uchun bola o'ynab charchamaydi, zerikmaydi. Bolaning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatlari hamda bir qancha shaxsiy sifatlari o'yin jarayonida bevosita rivojlanadi.

Ko'pchilik psixologlar hamda pedagoglar o'yinnig psixologik masalalari bilan bevosita shug'ullanib, o'yinlarning bolani psixik kamol toptirishga alohida to'xtalib o'tganlar. O'yin uzoq davrlardan beri mashxur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelingan dolzarb mavzudagi muammolardan biridir. Bola psixikasining taraqqiy etishida o'yinning rol'i beqiyosdir. Biz bolaning psixik taraqqiyotini o'yinsiz tassavur qila olmaymiz. Chunki ularga oddiy mashg'ulotlar ham o'yin orqali o'tilib, tevarak atrof bilan tanishtiriladi.

O'yin bolaning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o'zgarib turadi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida shifokorlik yoki o'qituvchilik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi.

Bunday o'yinlarda bolalarga ijtimoiy hayot tushuntirilib o'tiladi. Ularning hissiyotlari o'rganiladi. Kasbga yo'naltirish davat etiladi.

O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyoti uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o'yin jarayonida faqat namoyon bo'lib qolmasdan, bunda sifat va fazilatlari mustahkamlanadi, o'zlashtiriladi.



Shuning uchun psixologik nuqtai nazaridan oqilona yani to‘g‘ri tashkil qilingan o‘yin, bola shaxsini har tomonlama o‘stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi.

O‘yin o‘z mohiyati jihatidan katta kishilarning hatti -harakatlari va xulq -atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo‘lishi tufayli bolalarda ma’naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob- axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Ko‘pincha bolalar aks ettirayotgan tashqi muhit hodisalari ular o‘yin faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Bolalar aks ettirayotgan muhit qanchalik keng va xilma -xil bo‘lsa, bolalar o‘yining mazmuni ham shunchalik keng va xilma -xil bo‘ladi. Ana shuning uchun kichik bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yinlarining mazmuni nihoyada tor bo‘ladi. Ta’lim olish vaqtida va bolaga oldingi avlod tomonidan qoldiriladigan tajribani yetkazib berishda bolaning psixik rivojlanishi amalga oshsada, bilim va ko‘nikmalarni aksariyat qismini u kattalar bilan muloqotda, ularning talablarini, maslahatlarini va ko‘rsatmalarini bajarish davomida o‘zlashtiradi. Shuningdek o‘yin faoliyati, rasm chizish, buyumlar yasash va turli xil faoliyatlarda vujudga kelgan kundalik muloqot ham bolaning bilim va ko‘nikmalarini kengaytirib boradi.

O‘yinlar jarayonida bolalarning bir birlari bilan faol munosabatda bo‘lishlariga imkon yaratiladi. Bu esa, bolalar nutqining tez rivojlanishiga olib keladi. Ma’lumki, mazmunli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarning o‘z qonun – qoidalari mavjud. Bu qonun -qoidalarga rioya qilishda bolalar o‘z iroda kuchlarini ishga soladilar. Binobarin, o‘yin faoliyati davomida bolalarning irodaviy sifatlari ham jadal rivojlanadi. O‘yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha bolalar xayolining o‘zi o‘yin jarayonida yuzaga kelib, rivojlanadi.



Bolalar o‘yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratadilar. Odamning tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas , balki aktiv hamda ijodiy yaratuvchan, o‘zgartiruvchan jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1) S.M.ARIPOVA,S.X.JALILOVA.MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI- TOSHKENT-2013.
- 2) M.VOHIDOV. BOLALAR PSIXOLOGIYASI -TOSHKENT-1982.
- 3) “MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI BILAN MAKTAB O’RTASIDAGI ALOQANING MAZMUNI VA SHAKLLARI”
“BUGUNGI KUNDA TA’LIM VA TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI 2021 YIL 17 MAY
- 4) “MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTINING OILA BILAN HAMKORLIGI” MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING DOLZARB VAZIFALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR. RESPUBLIKA ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA MATERIALLARI TO’PLAMI 2020 YIL 23 OKTABR
- 5) “MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA ESTETIK TARBIYA BERISH TURLARI VA USULLARI” MAVZUSIDAGI MAQOLA XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI 11-SON2022 YIL 17 OKTABR



- 6) TARBIYA YOSHLAR KELAJAGI POYDEVORI. KINDS OF POPULAR SCIENTIFIC ARTICLE KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMI. 2022 YIL 15 OKTABR
- 7) SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM ASOSIDA TA'LIMiy FAOLIYAT TURLARINI TSHKIL ETISH. "MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMO, YECHIMLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI" XALQARO AMALIY KONFERENSIYASI TO'PLAMI 2022 YIL 18 NOYABR